

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Jo'rayeva	
Firoqiy va Partav	314
Z.Teshabojeva	
Abduqayum yo'ldoshning obraz yaratish mahorati	318
N.J.Abdusamatova	
Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash	322
Sh.A.Ermatova	
Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'qitishda "Blum taksonomiyasi" dan foydalanish	326
M.J.Jurabojeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglash va tahlil etishga o'rgatishning o'ziga xosligi	331
Sh.M.Usanov	
O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va totuvlikning ta'minlanishida milliy madaniy markazlarning o'rni.....	334
V.A.Giyosova	
Glyuttonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari	339
Г.Р.Абдуллаев	
Социокультурные и этнические особенности в развитии молодёжи в узбекских семьях под влиянием опыта пожилых.....	342
J.Sh.Amayusupov	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish bosqichlari.....	345
M.T.Voxidova	
Abu Nasr Forobiy asarlarida insonparvarlik masalalari	350
N.M.Xodjibolajeva	
Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari	354
Sh.M.Muxamedov	
Materialshunoslik fanining elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish.....	358
S.I.Raxmatullajeva	
Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazi faoliyati tarixi	371
M.A.Junaydullajev	
Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari	377
M.M.Temirova	
Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari	382
M.U.Kurbanov	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagogik jamoasini maqsadli boshqarishda ergonomik yondashuv	387
M.O.Batirkhanova	
Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	391
M.C.Ganieva	
Особенности социально-философских взглядов по развитию женского предпринимательства.....	395
I.A.Ismoilov	
Jazo tushunchasi va uning mazmun-mohiyati xususida	401
D.G'.Zaylobidinova	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning metodik tizmi	405
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga doir	408
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoviy texnologiya" fanini fanlararo bog'lanish asosida o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlari	416
G'.M.Alamov	
Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'rni.....	420

**O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO HAMJIHATLIK VA TOTUVLIKNING
TA‘MINLANISHIDA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING O‘RNI**

**РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ КУЛЬТУРНЫХ ЦЕНТРОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ
МЕЖДУНАРОДНОЙ СОЛИДАРНОСТИ И ГАРМОНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**THE ROLE OF NATIONAL CULTURAL CENTERS IN ENSURING INTERNATIONAL
SOLIDARITY AND HARMONY IN UZBEKISTAN**

Usanov Shuxrat Musurmonovich¹

¹Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini assistenti,
mustaqil tatqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar jarayonida milliy madaniy markazlarning ahamiyati, milliy totuvlikning shakllanishida davlat siyosatining o‘rni, O‘zbekistondagi millatlararo bag‘rikenglik jarayonlari haqida ma‘lumotlar berilgan.

Аннотация

В данной статье национальное в процессе межэтнических отношений в Узбекистане информация о значении культурных центров, роли государственной политики в формировании национального согласия, процессах межэтнической толерантности в Узбекистане.

Abstract

In this article, national in the process of inter-ethnic relations in Uzbekistan information about the importance of cultural centers, the role of state policy in the formation of national harmony, the processes of inter-ethnic tolerance in Uzbekistan.

Kalit so‘zlar: millat, millatlararo totuvlik, jamoat tashkilotlari, Baynalmilal madaniyat markazi, millatlar va elatlar, urf-odatlar, jamiyatlar, ijtimoiy barqarorlik.

Ключевые слова: нация, межнациональное согласие, общественные организации, Международный культурный центр, нации и народы, традиции, общества, социальная стабильность.

Key words: nation, inter-ethnic harmony, public organizations, International Cultural Center, nations and people, traditions, societies, social stability.

KIRISH

Mustaqil O‘zbekiston tarixida dunyo mamlakatlari tomonidan e’tirof etiladigan eng katta jihatlar orasida mamlakatda millatlararo munosabatlar sohasida bag‘rikenglik tamoyilining mavjudligi hisoblangan. Mamlakatimiz ko‘pmillatli (130 dan ortiq) mamlakat bo‘lib unda tinchlik va tartibotni ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishlaridan sifatida — millatlararo munosabatlarning barqaror tizimining yaratilganligidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu ilmiy tatqiqotni urganishda mamlakatda millatlararo munosabatlar sohasidagi hukumat qarorlari, farmonlar, sohaga tegishli adabiyotlardan, monografiyalardan, ilmiy va ommabob jurnallarda nashr qilingan maqola hamda tezislardan foydalanildi. Ilmiy tatqiqot jarayonida ma‘lumotlarni tahliliy jihatdan qiyoslash, manbalarni tahlil qilish orqali xulosa olish, manbalarga xolisona yondashish usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘zining boy madaniy merosi va xilma-xil etnik tarkibiga ega O‘zbekiston madaniy xilma-xillikni rivojlantirish va madaniyatlararo o‘zaro tushunishni rivojlantirish bo‘yicha uzoq tarixga ega hisoblanadi. Mamlakatda bu boradagi sa‘y-harakatlarning muhim jihatlaridan biri davlatning turli joylarida, viloyat hamda tumanlarida milliy madaniy markazlarning tashkil etilib faoliyat yuritayotganligi hamdir.

Milliy madaniy markazlar O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi turli etnik jamoalarning madaniy an‘analari, urf odatlari, turli qadriyatlarini saqlash va targ‘ib qilishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. O‘zbekistonda milliy madaniy markazlarning tashkil etilishini sovetlar davridayoq boshlangan bo‘lsa bunday markazlar turli davrlarda soni va salmog‘i oshib bordi. Ushbu milliy madaniy markazlar asosiy qiladigan ishlari etnik jamoalarga o‘zlarining madaniy merosi, tili va urf-

odatlarini, bayramlarini nishonlash, o'lkadagi boshqa millat vakillari bilan o'zaro do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi va o'zlarining qadriyatlarini saqlab asrab avaylashga ularni yanada rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida Millatlararo totuvlik va millatlararo bag'rikenglikni rivojlantirishda xizmat qilayotgan milliy madaniy markazlar 1988-1989-yillardayoq tashkil etila boshlagan edi. Milliy madaniy markazlar (MMM) faoliyatini muvofiqlashtirib olib borish maqsadida 1992-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida tuzilgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi (RBMM) millatlararo totuvlik va madaniyatlararo bag'rikenglikni mustahkamlashda muhim rol o'ynadi.

1992-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasini "Respublika Baynalmilal madaniyat markazi to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, O'zbekiston Millatlararo madaniyat markazi Respublika baynalmilal madaniyat markaziga aylantirilishi belgilangan.

1993-yil 8-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika baynalmilal madaniyat markazining faoliyati masalalari to'g'risida"gi qaror qabul qilinadi. Qarorni 1-illovasida Respublika baynalmilal madaniyat markazi to'g'risida Nizom e'lon qilinib ushbu nizomda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan:

- Respublika baynalmilal madaniyat markazi millatlararo munosabatlar, O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining totuvligi va hamkorligini ta'minlash, ularning o'ziga xos madaniyatlari va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash sohasidagi siyosatni amalga oshirishda davlat organlariga va jamoat tashkilotlariga ko'maklashuvchi mustaqil muassasa hisoblanadi.

- Markaz o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, mazkur Nizomga amal qiladi va o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

- Markaz maslahat, ekspert va axborot-tahlil funksiyalarini amalga oshiradi, milliy madaniyat markazlari, uyushmalar, jamiyatlar, shuningdek etnik asosda tashkil etilgan boshqa tashkilotlar va ular huzurida tuzilgan tarkibiy bo'linmalar (keyingi o'rinlarda matnda "madaniyat markazlari" deb yuritiladi) monitoringini olib boradi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi.

- Ushbu sohada joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish va Markaz bilan aloqalar o'rnatish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o'rinbosarlaridan biriga yuklanadi[4].

Ushbu baynalmilal markazlar faoliyati bilan bog'liq nizomda markazlarning faoliyati haqida ham vazifa va topshiriqlar belgilanib Nizomda Markazning asosiy vazifalari quyidagicha belgilandi:

- Tegishli vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari, shuningdek jamoat tashkilotlari bilan birgalikda millatlararo munosabatlar sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishida qatnashish;

- millatlararo totuvlik prinsiplari qaror topishiga yo'naltirilgan ijtimoiy tashabbuslarni rag'batlantirish, muvofiqlashtirish va taqdirlash, millatlararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirish;

- davlat organlarida madaniyat markazlarining manfaatlarini ifodalash, Nizomda qayd etilgan vazifalar amalga oshirilishi masalalari bo'yicha ular faoliyatini muvofiqlashtirish, O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining o'ziga xos milliy an'analari, urf-odatlar va rasm-rusumlarini tiklash va rivojlantirish;

- turdosh xorijiy tashkilotlar bilan aloqalar o'rnatilishida madaniyat markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ushbu masalada ularga har tomonlama ko'maklashish, millatlararo munosabatlarni tartibga solishga taalluqli xalqaro huquqiy hujjatlar ma'lumotlari bankini barpo etish;

- millatlararo munosabatlar masalalariga tegishli qonun hujjatlari va normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va ekspertiza qilishda ishtirok etish;

- madaniyat markazlariga amaliy va metodik yordam ko'rsatish;

- adliya organlaridan ro'yxatdan o'tishda madaniyat markazlari tomonidan kiritiladigan hujjatlar yuzasidan xulosalar tayyorlash;

- jamoat tashkilotlariga millatlararo totuvlikni qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha maslahatlar berish, O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish;

- millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda tashkiliy, huquqiy, metodik yordam ko'rsatish, konferensiyalar, seminarlar va "davra suhbatlari" tashkil etish:

- har xil millatlar va elatlar vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirishga, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan teleradio ko'rsatuvlar va eshittirishlar tayyorlashda, kitoblar, risolalar, ma'lumotnomalar, prospektlar, bukletlar va bosma mahsulotlarning boshqa turlarini tayyorlashda qatnashish;

- madaniyat markazlarining faoliyati to'g'risida axborot-tahlil ishlarini yuritish va ushbu masala bo'yicha zarur ma'lumotlar bankini barpo etish kabi qator vazifalari belgilab berildi[4].

Respublika Baynalmilal madaniyat markazlari faoliyati natijasida mamlakatda milliy madaniy markazlar salmog'i yildan yilga oshib bordi. Milliy madaniy markazlarning yillar davomida sonining oshib borishi nazar tashlasak ular 1989-1990-yillarda Toshkentda dastlabki 9 ta MMM (Ozarbayjon, Arman, Boshqird, Qozoq, Koreys, Nemis, Tojik, Tatar, Uyg'ur) va boshqa mintaqalarda ham bir qancha (Samarqand va Buxoroda Tojik, Andijonda Uyg'ur, Sirdaryo va Farg'ona, Nukusda Koreys) milliy madaniy markazlari tuzildi. 1991-yilda bunday milliy madaniy markazlar soni 35 taga yetdi, shundan 14 tasi Toshkentda edi, yana uchta markazni tuzish ishlari boshlab yuborilgan edi. 1992- yilga kelib 54 ta milliy-madaniy markaz ishlay boshladi va endi Respublika baynalmilal madaniy markazi ularning faoliyatini muvofiqlashtirishga kirishdi. 1994-yilda 76 ta markaz (shu jumladan, Toshkentda 22 ta markaz) ishlayotgan va yana ikkita markaz tuzila boshlagan edi. 2003-yilda ularning soni 122 taga, 2005-yilda 135 taga, shu jumladan, Toshkentda 35 taga, Samarqandda 11 taga, Buxoroda 10 taga etdi[5].

(Izoh: 2022-yilda 153 tani tashkil etgan markazlar, 2023-yilga kelib 156 tani tashkil etmoqda).

2023-yilning 16-noyabr kuni "Xalqaro bag'rikenglik kuni" munosabati bilan har yili mamlakatimizda nishonlanish an'anaga aylangan kun munosabati bilan mamlakatimizning turli mintaqalarida, milliy madaniy markazlarida, ta'lim muassasalarida turli tadbir va kechalar o'tkazildi.

Ushbu kun munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasida ham tadbirlar tashkil etildi. Ushbu tadbir jarayonida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi mas'ul xodimi Saodat Davlatova mamlakatimizning bu boradagi tajribasi, o'zbek millatiga xos bag'rikenglik haqida fikr yuritadi:

- Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamlil islohotlar zamirida, avvalo, inson manfaati, uning huquqi va erkinligini ta'minlash maqsadi mujassam. Fuqarolar manfaatini tinchlik-osoysishtalik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat, hamjihatlik muhitini yaratish orqaligina ta'minlash mumkin. Jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik tushunchasi shakllanishi ildizi qadim davrga taqaladi. O'zbek millati uchun, tarixan, ezgulikka intilish, sabr, bag'rikenglik, mehr-oqibat, bir-biriga nisbatan xayrixohlik ma'naviy qadriyatning tub mohiyatini anglatadi.

Ikkinchi jahon urushi vaqtida O'zbekistonga 1,5 million kishi, jumladan, 250 mingdan ziyod bola evakuatsiya qilingan. Turli millat vakillari – bolalarni bag'riga olgan Shoahmad Shomahmudovlar xonadonini butun dunyo biladi. Shu bois, har yili haftalik doirasida millatimiz timsoli, bag'rikenglik, mehr-shafqat ramzi hisoblangan Shomahmudovlar oilasi monumenti poyiga gul qo'yish marosimi bo'lib o'tadi.

Hozirgi kunda qo'mita jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish, do'stona xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, xorijiy mamlakatlarning fuqarolik hamjamiyatlari bilan do'stlikni mustahkamlash, davlat idoralarning, "xalq diplomatiyasi" mexanizmidan foydalangan holda, respublika hududida joylashgan 156 milliy madaniy markazlar, 38 do'stlik jamiyati va 98 xorijdagi vatandoshlar jamiyatlari bilan o'zaro hamkorligini amalga oshirib kelmoqda.

O'zbekistonda yashab kelayotgan 130 dan ziyod millat, elatlar vakillari o'z ona tilida ta'lim olish imkoniga ega. 7 qardosh tilda ko'rsatuv va eshittirishlar efirga uzatilayotgani, gazeta va jurnallar 10 dan ortiq tilda chop etilayotgani millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va hamjihatlik muhitining amaldagi namunasidir.

Yurtimizda millatlararo totuvlikni mustahkamlashga munosib hissa qo'shgan milliy madaniy markazlarning 500 dan ortiq faoli davlat mukofotiga sazovor bo'ldi, orden, medallar bilan taqdirlandi, 14 nafari "O'zbekiston Qahramoni" unvoniga sazovor bo'ldi, 500 dan ortiq mahalliy va xorijlik vatandosh-fuqarolarimiz "Xalqlar do'stligi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Vatanimizda yashayotgan turli xalqlar o'rtasida o'zaro hurmat, teng huquq va hamjihatlikni mustahkamlashning qonuniy asosini yaratishga jiddiy e'tibor qaratildi. Xususan, Konstitutsiyamizning 4-moddasida O'zbekiston davlati o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlar tili, urf-odati va an'anasi hurmat qilinishini ta'minlashi, rivoji uchun sharoit yaratishi alohida ko'rsatib o'tilgan.

Bosh Qomusimizning 19-moddasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinlikka egaligi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi belgilab qo'yildi.

2022 yil "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida milliy madaniy markazlar va 16 diniy konfessiya faollari tomonidan "Yangi O'zbekiston" bog'i hududida "Bag'rikenglik bog'i"ga asos solinishi bilan bu yo'ldagi ezgu va xayrli sa'y-harakatlar natijasida mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elatlar o'rtasidagi do'stlik rishtasi yanada mustahkamlandi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hozir jamiyatning har bir jabhasida turli o'zgarishlar yuz berib, globallashuv jarayoni shiddat bilan rivojlanib, jadallashib borayotgan bir paytda, yoshlarning vaziyatga moslashishi, tolerantlik tushunchasi shakllanishi, sabr-toqat, o'zgalarga hurmat-izzat qaror topishiga talab tobora ortmoqda. Bu holat hozirgi davr jamiyati tuzilmasi ko'p millatli, ko'p madaniyatli va ko'p e'tiqodli ko'rinish olib, davr yoshlarida tolerantlik ongini shakllantirishga ehtiyoj ortishiga olib keladi.

Yoshlarimizning yurtimizdagi turli millatlar milliy madaniy markazlari umumxalq bayramlarida faol ishtirok etishi, ayniqsa, Mustaqillik bayrami arafasida "O'zbekiston – umumiy uyimiz", "Vatan bitta, Vatan yagona", "Kuchimiz – birlik va hamjihatlikda", "Millatlararo totuvlik – Vatanimiz tinchligi va gullab-yashnashi garovi" mavzularidagi festivallar, tadbirlar tashkil etilishi do'stlik rishtalari yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. O'z navbatida turli millat vakillari, jumladan armanlarning gul bayrami – "Vardavar", bolgarlarning "Martinitsa"si, tatar va boshqirdlarning "Sabantuy"i, greklarning "Oxi"si, koreyslarning "Chxusok"i, polyaklarning hosil bayrami – "Dojinki"si, ruslarning "Rojdestvo"si, "Maslenitsa"si, nemislarning "Birdamlik kuni" O'zbekistonda keng nishonlanadi.

Do'stlik rishtasini mustahkamlashga qaratilgan ko'plab ilmiy-amaliy konferensiyalar, qiziqarli ko'rgazma, festival, forumlar, davlat darajasidagi bayram tantanalari, albatta, ko'p millatli xalqimiz bilan birga nishonlanadi. Bunday tadbirlar O'zbekistonda hukm surayotgan millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik munosabatlarini yanada mustahkamlaydi[6].

Umuman olganda soha mutaxassisleri bergan manbalarga tayanadigan bo'lsak mamlakatimizda milliy totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, millatlararo munosabatlar takomillashuvida mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan milliy madaniy markazlar (2023-yil holatga ko'ra ular 156 ta) faoliyati juda ahamiyatli ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimiz tarixida 2016-yil oxirlari va 2017-yildan boshlab juda katta iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda o'zgarishlar davri boshlandi. Ushbu keng ko'lamdagi islohatlar mamlakatimizda millatlararo totuvlikni ta'minlash, millatlararo hamjihatlikni taminlash sohasiga ham ijobiy ta'sir etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev turli tadbirlar, kechalar, uchrashuvlar va seminarlarda ma'ruzalarida tinchlikni ta'minlash, millatlar va dinlararo totuvlik muhitini qo'llab-quvvatlash, din niqobidagi ekstremizm va terrorizmga qarshi ayovsiz kurash masalalarini asosiy tamoyil sifatida olg'a surib kelmoqda.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga nazar tashlasak ushbu huquqiy hujjatda ham Milliy munosabatlar sohasiga katta e'tibor berilganligini ko'rish mumkin jumladan uning beshinchi yo'nalish sifatida "Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar" belgilandi.

Millatlararo munosabatlar yo'nalishidagi yana bir dolzarb masalalardan biri aholining milliy tarkibiga mos keladigan ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish. Bu borada Respublikamizda bugungi kunga kelib, 10 mingga yaqin maktab faoliyat yuritayotgani, shundan 845 ta maktabda rus tilida, 491 ta maktabda qozoq tilida, 259 ta maktabda tojik tilida, 52 ta maktabda turkman tilida, 40 ta maktabda

qirg'iz tilida, 7 ta maktabda koreys tilida ta'lim berish yo'lga qo'yilganini ta'kidlash kerak. Bular orasida ikki yoki uch tilda o'quv mashg'ulotlari olib borilayotgan maktablar ham bor. Xalq ta'limi vazirligiga qarashli pedagogik institutlarida o'zbek tilidan tashqari rus, tojik, turkman, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq tillarida ham mashg'ulotlar olib boriladigan maktablar uchun mutaxassislar tayyorlanmoqda.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi dunyo hamjamiyatida tutgan o'rnida mamlakatdagi millatlararo munosabatlar, millatlararo bag'rikenglik masalasi bilan ajralib turadi. Ayniqsa Yangi O'zbekiston sharoitida turli millatga mansub kishilarga berilayotgan imtiyozlar natijasida yurtimizning har bir mahalla va guzarlarida yashovchi fuqarolar ma'naviy madaniyat jihatdan yuksaklikka erishib bormoqda. Mamlakatning turli joylarida ayniqsa ko'p millatli xalqning yoshlariga yaratayotgan imkoniyatlar natijasida san'at va adabiyot asarlari, tarixiy-me'moriy boyliklar o'ziga xos yutuqlarga erishilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son [Farmoni](#) // Xalq so'zi, 2017-yil 23-may.
2. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvarda "Respublika Baynalmilal madaniyat markazi to'g'risida"gi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraidagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi, 2017-yil 8-fevral.
4. Vazirlar Mahkamasining Respublika baynalmilal madaniyat markazi to'g'risidagi 2003-yil 8-apreldagi 180-son qarori.
5. Murtazayeva.R. O'zbekistonda Millatlararo munosabatlar va tolerantlik, darslik: "Go To Print"- 2020, 248-bet.
6. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi mas'ul xodimi Saodat Davlatovanning 16-noyabr xalqaro bag'rikenglik kuni munosabati bilan O'ZA muxbiri Go'zal Sattorova bilan olib borgan suhbat. (<https://uza.uz/uz/posts/bagriik...>)